


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-sentyabr)


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3 823,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,7 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 484,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 141,9 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3 339,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 217,5 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,2 %) tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri, Beruniy, Qonliko'l va Shumanoy tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 30,8 %), Beruniy (9,4 %), Xo'jayli (9,4 %), To'rtko'l (8,9 %) va Qo'ng'iro't (7,2 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 41,9 %ga o'sdi va 484,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,7 %iga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 3 339,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,1 %ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,3 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2018 yil  
yanvar-sentyabr

2019 yil  
yanvar-sentyabr



Yirik korxonalar  
Kichik tadbirkorlik

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



Kichik tadbirkorlik  
Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko`l (99,8 %), Qorao`zak (99,6 %), Nukus (99,4 %), Kegayli (99,4 %) va Shumanoy (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,7 %ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (31,2 %), Taxiatoch (19,2 %) va To`rtko`l (10,4 %) tumanlarida kuzatilgan.

### **Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>484 271,2</b>	<b>141,9</b>	<b>3 339 078,5</b>	<b>105,1</b>
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	14 152,2	81,3	246 188,3	108,7
Beruniy	8 688,7	87,4	351 797,2	108,6
Qonliko`l	218,2	137,8	99 075,7	107,8
Qorao`zak	513,9	74,6	126 697,8	106,2
Kegayli	500,5	95,9	80 637,2	105,7
Qo`ng`irot	11 479,5	158,8	262 427,4	105,4
Mo`ynoq	493,3	88,4	26 680,5	106,1
Nukus	438,8	71,9	70 404,3	107,4
Taxiatoch	17 516,9	89,6	73 907,4	111,6
Taxtako`pir	974,4	132,5	97 802,9	105,8

To`rtko`l	35 513,4	82,2	306 437,7	111,8
Xo`jayli	8 368,1	126,1	352 403,3	106,8
Chimboy	13 444,7	98,3	141 154,9	106,5
Shumanoy	647,8	116,5	81 925,2	107,8
Ellikqal`a	4 125,2	153,6	211 825,9	105,2
Nukus sh.	367 195,7	169,1	809 712,7	97,9

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo`yicha aholi jon boshiga 2 033,9 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,1 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida o`tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o`sish qayd etilib, eng yuqori ko`rsatkichlar Nukus shahri (3 716,2 ming so`m), Xo`jayli (2 964,4 ming so`m) va Taxtako`pir (2 469,4 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Mo`ynoq (862,7 ming so`m), Kegayli (905,6 ming so`m) va Taxiato`sh (1 249,0 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>2 033,9</b>	<b>107,1</b>
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1 324,2	104,7
Beruniy	1 908,3	105,9
Qonliko`l	1 966,2	106,6
Qorao`zak	2 423,1	105,2
Kegayli	905,6	105,1
Qo`ng`irot	2 125,0	105,7
Mo`ynoq	862,7	104,0
Nukus	1 431,2	104,9
Taxiatosh	1 249,0	105,2
Taxtako`pir	2 469,4	105,4
To`rtko`l	1 615,3	105,8
Xo`jayli	2 964,4	105,9
Chimboy	1 338,5	104,8
Shumanoy	1 479,8	106,9
Ellikqal`a	1 373,7	103,6
Nukus shahri	3 716,2	111,2

Jumladan, 2019 yilning yanvar-sentyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,1 %ni tashkil etib, 120,1 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 9,3 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-sentyabr)

Yil boshidan respublika bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 268,7 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 14,6 %ga o`tdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko`ra 727,4 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 57,3 %ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichni tumanlar bo'yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qorao`zak, Qo`ng`irot, Qonliko`l, Mo`ynoq, Nukus va Ellikqal`a tumanlarida 100 %ni tashkil etgan.

### Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 42,7 %ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo'jayli (jamiga nisbatan ulushi – 94,8 %), Nukus shahri (42,0 %) va To'rtko'l (4,8 %) tumanlarida kuzatildi.

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1 268 724,7</b>	<b>114,6</b>	<b>541 361,0</b>	<b>138,8</b>	<b>727 363,7</b>	<b>57,3</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	15 600,1	102,6	715,3	122,7	14 884,8	95,4
Beruniy	57 891,0	100,4	-	-	57 891,0	100,0
Qonliko'l	17 194,6	101,0	-	-	17 194,6	100,0
Qorao'zak	10 521,5	102,1	-	-	10 521,5	100,0
Kegayli	706,7	100,0	0,6	3,6	706,1	99,9
Qo'ng'iro't	29 943,4	101,6	-	-	29 943,4	100,0
Mo'ynoq	2 573,9	102,2	-	-	2 573,9	100,0
Nukus	63 894,9	102,1	-	-	63 894,9	100,0
Taxiatosh	18 541,4	99,6	563,0	76,0	17 978,4	97,0
Taxtako'pir	8 187,4	100,2	5,8	17,0	8 181,6	99,9
To'rtko'l	61 660,8	93,2	2 987,4	36,0	58 673,4	95,2
Xo'jayli	287 300,1	165,5	272 498,4	171,4	14 801,7	5,2
Chimboy	18 371,7	95,4	383,8	26,6	17 987,9	97,9
Shumanoy	328,2	99,4	3,5	27,9	324,7	98,9
Ellikqal'a	46 710,0	101,7	-	-	46 710,0	100,0
Nukus sh.	629 299,0	108,5	264 203,1	120,3	365 095,9	58,0

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati To'rtko'l (93,2 %) tumanida qayd etildi.